

5-Iyun, 2025-yil

MUHOKAMAGA ASOSLANGAN ESSE YOZISH ORQALI O’QUVCHILARDA MANTIQIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Kabulov Inamjan Sharipbayevich

NDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada muhokamaga asoslangan esse yozish metodikasi orqali o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi yoritilgan. Unda esse yozishning o’quvchilar tafakkuriga ta’siri, muhokama madaniyatini rivojlantirishdagi o’rni hamda bu jarayonda qo’llanilishi mumkin bo’lgan samarali metodlar haqida so’z boradi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida esse yozishga o’rgatishning bosqichlari, usullari va mantiqiy fikrlashni rag’batlantirish omillari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: esse, muhokama, yozma nutq, mantiqiy fikrlash, kreativ fikrlash, tanqidiy fikr, metodika, o’quvchi faolligi

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida yosh avlodning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, yozma nutq, xususan, esse yozish orqali o’quvchilarning fikrini aniq, izchil va asosli bayon etishga o’rgatish katta ahamiyat kasb etadi. Muhokamaga asoslangan esse esa nafaqat yozma savodxonlikni oshiradi, balki o’quvchining tanqidiy, tahliliy va mantiqiy fikr yuritish ko’nikmalarini shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida o’quvchining faolligi, o’z fikrini himoya qilishga tayyorligi, dalillar keltira olishi uning tafakkuri rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu jihatdan esse yozish — ayniqsa, muhokamali shakllari — nafaqat adabiyot yoki ona tili fanida, balki barcha fanlarda fikrni bayon qilish, mustaqil xulosa chiqarishga xizmat qiladi. Maqolada aynan shu yo’nalishdagi samarali metodik yondashuvlar, esse yozishning bosqichlari va u orqali mantiqiy fikrlashni shakllantirishga oid tajribalarga e’tibor qaratiladi.

Muhokamaga asoslangan esse yozish — bu o’quvchining biror masalaga nisbatan o’z fikrini bildirish, uni asoslash, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni ko’rsatish va yakuniy xulosa chiqarishga asoslangan yozma ijodiy faoliyatdir. Bunday esse yozish o’quvchining nafaqat bilimini, balki fikrlash darajasini, mulohaza yuritish madaniyatini ham namoyon etadi.

Mantiqiy fikrlash va muhokamali esse o’rtasidagi bog’liqlik[1.B.10]

Mantiqiy fikrlash — bu fikrlar zanjiri orqali to’g’ri xulosa chiqarish qobiliyati bo’lib, unda sabab-oqibat aloqasi, tahlil, solishtirish, umumlashtirish, rad etish va dalillash muhim o’rin tutadi. Muhokama mazmunidagi esse esa aynan mana shu fikr yuritish elementlariga tayangan holda tuziladi. O’quvchi:

- mavzu bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni ko’rib chiqadi;
- o’z pozitsiyasini belgilaydi;
- fikrini dalillar bilan asoslaydi;
- rad etuvchi qarashlarga munosabat bildiradi;

• xulosa chiqaradi.

Bu esa tabiiy ravishda mantiqiy fikrlashni talab etadi.

Muhokamaga asoslangan esse yozishning bosqichlari

Muhokama asosidagi esse yozish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Mavzuni tushunish va yo‘nalishni tanlash: O‘quvchi mavzuni tahlil qilib, uni qanday yondashuvda ochishini rejalashtiradi. Masalan: “Zamonaviy texnologiyalar yoshlar ongiga ijobji ta’sir ko‘rsatadimi yoki salbiymi?”

Asosiy fikrni belgilash (tezis): O‘quvchi o‘z nuqtai nazarini bayon qiladi: “Texnologiyalar yoshlar dunyoqarashini kengaytiradi.”

Dalillar va misollar keltirish: 3-4 dalil, hayotiy misollar, statistik ma’lumotlar yoki kitobdan parchalar orqali fikr asoslanadi.

Qarama-qarshi fikrga munosabat: Qarshi pozitsiyani keltirib, uni tahlil qiladi va nega noto‘g‘ri deb hisoblayotganini tushuntiradi.

Xulosa: O‘quvchi umumiyl xulosaga keladi, o‘z pozitsiyasini qayta mustahkamlaydi.

Muhokamali esse yozishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodlar

O‘qituvchi esse yozishni o‘rgatishda quyidagi metodlardan foydalanishi mumkin:

- “Fikr xaritasi” metodi: Mavzu atrofida asosiy fikrlar va ularning bog‘liqliklarini vizual ko‘rinishda tuzish.

- “Ikkita ustun” usuli: Bir tarafga mavzuni qo‘llab-quvvatlovchi, ikkinchi tarafga qarshi dalillar yoziladi.

- “Dalil-fikr-xulosa” modeli: Har bir fikr dalil bilan mustahkamlanadi va xulosa bilan yakunlanadi.

- Bahsli guruh ishlari: O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, qarama-qarshi pozitsiyalarni himoya qiladilar.

Amaliy tajriba va kuzatishlar

Tajriba tariqasida 6-7-sinf o‘quvchilari ishtirokida muhokamali esse yozish topshiriqlari berildi. Dastlabki bosqichda o‘quvchilar o‘z fikrlarini ifoda etishda ancha qynalgan bo‘lsalar-da, mantiqiy ketma-ketlikka amal qilishni o‘rganishganidan so‘ng esse mazmunan boy va tuzilish jihatdan ancha yaxshilangan. Bu jarayon ularning:

- mustaqil fikrlash qobiliyati,
- mantiqiy tahlil qilish ko‘nikmasi,
- fikrni asoslash va xulosa chiqarish mahoratini rivojlantirganini ko‘rsatdi.

XULOSA

Insonning yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari uning fikrlarining bevosita natijasidir.[2.B.14]

Muhokamaga asoslangan esse yozish – o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, dalillash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda nihoyatda samarali vositadir. Bunday esse o‘quvchini chuqur o‘ylashga, masalani har tomonlama ko‘rib chiqishga va o‘z pozitsiyasini aniq va ishonchli ifodalashga undaydi. Muhokamali yondashuv o‘quvchining nafaqat yozma, balki og‘zaki nutqini ham rivojlantiradi, uning dunyoqarashi kengayadi, mulohaza yuritish madaniyati shakllanadi.

5-Iyun, 2025-yil

Tajriba va amaliy kuzatishlar shuni ko’rsatdiki, mazkur metodik yondashuvdan muntazam foydalanish natijasida o’quvchilarda fikrlar izchilligi, dalillarning mantiqiyligi va fikrni asosli tarzda ifodalash kabi muhim ko’nikmalar shakllanadi. Shuningdek, bu usul ta’limda faol ishtirok etuvchi, mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondashuvga ega bo’lgan shaxsnii tarbiyalashga xizmat qiladi.

Demak, muhokamali esse yozish metodikasi — nafaqat yozma nutqni, balki shaxsiy fikrlash va dunyoqarashni shakllantiruvchi, zamonaviy pedagogik vosita sifatida keng qo’llanishi lozim bo’lgan samarali yondashuvdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.R.Babayeva. “Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi”, Toshkent-2018
2. James Allen. “Insonning fikrashi” tarjima kitob, tarjimon: Dastan Kasimoff

INTERNET MATERIALLARI:

- 1.<https://abiturtest.uz/oqituvchilar/esse/?ysclid=mc9aze5epz576557410>
- 2.<https://baxtiyor.uz/esse-qanday-yoziladi-esse-yozish-qoidalari/?ysclid=mc9b1tnh9o181568554>